“HALOLLIK VAKSINASI”NI OILAVIY MUHITGA SINGDIRISHNING SOTSIO-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Nurdinov Javxarbek Baxramjon o‘g‘li

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oilada “halollik vaksinasi”ni shakllantirishning sotsio-psixologik asoslari va mexanizmlari tadqiq etiladi. Unda oilaviy muhit, ota-onaning shaxsiy namunasi, oilaviy muloqot hamda ijtimoiylashuv jarayonlarining shaxsda halollik fazilatlarini qaror toptirishdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, halollik qadriyatlarini o‘zlashtirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, oilaviy munosabatlarning tarbiyaviy salohiyati hamda oila va boshqa ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi hamkorlik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Natijada shaxsda halollik, vijdonlilik va mas’uliyat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishning muhim shartlari asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar. *halollik vaksinasi, halollik, oila, oilaviy muhit, ota-ona namunasi, ijtimoiylashuv, axloqiy immunitet, axloqiy qadriyat, oilaviy muloqot, ijtimoiy kapital, sotsiokulturniy muhit, axloqiy tarbiya.*

Oila shaxsda halollik qadriyatlari va axloqiy me’yorlarning shakllanishida muhim o‘rin tutuvchi birlamchi ijtimoiy institut hisoblanadi. Zero, inson dastlabki ijtimoiy tajriba, xulq-atvor me’yorlari, qadriyatlar hamda yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlarni, avvalo, oilaviy muhitda o‘zlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, oilada “halollik vaksinasi”ni shakllantirish jarayoni, eng avvalo, o‘zaro ishonch, adolat, samimiylik va shaffoflikka asoslangan sog‘lom oilaviy munosabatlarni qaror toptirishni taqozo etadi. Zero, farzandning axloqiy qarashlari faqat nasihat va tarbiyaviy suhbatlar orqali emas, balki ota-onaning kundalik xatti-harakati, oiladagi o‘zaro munosabatlar va hayotiy tajribalarni kuzatish orqali ham shakllanadi. Shu bois oila shaxsda halollik fazilatlarini singdirish va mustahkamlashning asosiy ijtimoiy muhiti sifatida namoyon bo‘ladi.

Oila ichidagi ijobiy muhit - o‘zaro hurmat, muloyim muloqot, adolatli munosabat va ochiqlikdan iborat bo‘lib, ushbu omillar halollikning psixologik poydevorini yaratadi. Masalan, ota-onaning farzand bilan muloqoti davomida yolg‘onga nisbatan murosasizlik, rostgo‘ylikni qadrlash, xato qilgan farzandni qattiq jazolamasdan, balki xatosini tushunishga undash kabi yondashuvlar halollikning ichki mexanizmlarini uyg‘otadi. Bunday muhitda tarbiyalangan farzand halollikni majburiyat sifatida emas, balki shaxsiy ehtiyoj va qadriyat sifatida qabul qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, farzand bilan muntazam muloqot qiladigan, o‘z his-tuyg‘ularini ochiq ifodalaydigan, farzandining fikrini tinglaydigan ota-onalar halollikning ichki mexanizmlarini shakllantirishda yuqori natijaga erishadi. Bunday oilalarda farzand ko‘proq o‘z fikrini aytishdan qo‘rqmaydi, xatosini yashirish o‘rniga tushuntirishga intiladi va bu jarayonda halollik “salbiy xatti-harakatga javob bo‘ladigan xavf” emas, balki “oila ichidagi ishonchni saqlab qolish vositasi” sifatida shakllanadi.

Shuningdek, oilaviy muloqotning turli shakllari - birgalikdagi suhbatlar, kundalik vaziyatlar bo‘yicha bahs-munozaralar, hayotiy misollar tahlili, ertak va hikoyalar orqali tushuntirish - bolaga axloqiy ko‘rsatmalarni yetkazishda yuqori samara beradi. Masalan, farzand biror kichik xato qilganda ota-onaning qattiq jazolamasdan, sabr bilan vaziyatni tahlil qilib, rostgo‘ylikning ijobiy oqibatlarini, aldashning esa ishonchni yemirishi mumkinligini tushuntirishi “axloqiy refleksiya”ni shakllantiradi. Bu refleksiya halollikning psixologik asoslarini mustahkamlaydi, chunki bola halollikni tashqi talab sifatida emas, o‘z ichki pozitsiyasi sifatida qabul qiladi.

Oila ichidagi kommunikatsiyaning sifati halollikning shakllanish darajasiga bevosita ta’sir qiladi:

Avtoritar oilalarda bolalar ko‘proq jazodan qo‘rqib, xatosini yashirishga moyil bo‘ladi.

Liberal oilalarda esa nazoratning yetishmasligi sabab halollikni me’yor sifatida qabul qilishda bo‘shliq paydo bo‘ladi.

Demokratik oilalarda esa suhbat, izoh, tinglash va muloqot asosiy tamoyil bo‘lib, halollik eng barqaror shaklda o‘sadi.

O‘zbek oilaviy an’analarida “suhbat qurish”, “bolaga nasihat qilish”, “oqibatini tushuntirish” kabi madaniy muloqot shakllari halollikni singdirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ota-onaning o‘z xatti-harakatlari haqidagi ochiqligi - masalan, mehnatdagi qiyinchiliklar, halol topgan rizqning qadri, o‘z xatosini tan olish madaniyati - farzandga halollikning amaliy modelini ko‘rsatadi. Shu tariqa oiladagi muloqot shunchaki axborot almashinuvi emas, balki axloqiy me’yorlar translyatsiyasi jarayoniga aylanadi[1].

Oila muhitida “halollik vaksinasi”ning shakllanishida eng kuchli va bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omil bu ota-onaning shaxsiy namunasi hisoblanadi. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, bola dastlabki axloqiy orientatsiyasini muloqot orqali emas, balki aynan kuzatish, taqlid va emotsional identifikatsiya orqali shakllantiradi[2]. Shu sababli ota-onaning kundalik hayotdagi halolligi - masalan, yolg‘on gapirmaslik, adolatli qaror qabul qilish, boshqalarning huquqlariga hurmat bilan qarash, moliyaviy masalalarda halollikni saqlash - farzandning axloqiy immuniteti uchun eng kuchli model bo‘lib xizmat qiladi.

Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasida bolalar aynan 5-15 yosh oralig‘ida “axloqiy qoidalarga moslashuv” bosqichiga kiradi[3]. Bu bosqichda ular abstrakt nasihatlardan ko‘ra, amaliy misollar orqali tezroq o‘rganadi. Masalan, ota-ona uyda kichik noto‘g‘riliklarni “ziyoni yo‘q-ku” degan tamoyil asosida oqlasa, bola ham halollik nisbiy tushuncha degan xulosani chiqarishi mumkin. Aksincha, ota-onaning hatto mayda masalalarda ham halollikka qat’iy amal qilishi bolaning ongida “axloqiy qat’iyat” modelini shakllantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, farzandlar o‘zlashtirgan axloqiy me’yorlarning 60-70 foizi aynan oilaviy kuzatish va amaliy tajriba orqali shakllanadi[4]. Ota-onaning halol hayot tarzi bolada “axloqiy ishonch”ni kuchaytiradi, ya’ni halollikning ijtimoiy va shaxsiy qiymati mavjudligiga ichki ishonch tug‘diradi. Bunday ishonch esa keyinchalik o‘smirlik va kattalik davrida korrupsion vasvasalarga qarshi turish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Oilada halollikning izchil namoyishi farzandda “axloqiy immunitet”ning shakllanishiga yordam beradi. Bu immunitet faqat qoidalarni bilish emas, balki real hayotda halollik mezonlarini tanlashga ichki tayyorlik va motivatsiyani anglatadi. Ota-onaning xulqi halollik vaksinasi uchun shunchalik kuchli determinator bo‘ladiki, hatto ta’lim muassasalaridagi intizomiy choralar yoki nazorat tizimlari ham uning ta’sirini to‘liq almashtira olmaydi[5]. Shuning uchun ota-onaning halollikka oid shaxsiy pozitsiyasi - oiladagi halollik vaksinasi mexanizmining asosi, markazi va eng mustahkam tayanchidir.

Oila shaxsning axloqiy rivojlanishida birlamchi muhit sifatida xizmat qiladi va bu jarayonda halollik vaksinasi psixologik mexanizmlar orqali shakllanadi. Psixologik yondashuvga ko‘ra, bola dastlabki axloqiy qoidalarga va qadriyatlarga ota-ona, qarindoshlar va yaqin atrofdagi insonlar modeli orqali ega bo‘ladi[6]. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida bolalar 2-12 yosh oralig‘ida axloqiy qoidalarni konkret vaziyatlar orqali o‘rganadi. Shu davrda ota-onaning halol xatti-harakatlari bola ongida axloqiy me’yor sifatida mustahkamlanadi.

Shaxsning ichki motivatsiyasi va vijdon tuyg‘usi halollikni amaliyotga tatbiq etishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, bola ota-onaning rostgo‘ylikni qadrlashini va yolg‘onni rad etishini kuzatganda, u ham ichki nazorat tizimini shakllantiradi[7]. Bu jarayon, Bandura nazariyasiga muvofiq, “ijtimoiy o‘rganish” mexanizmi orqali yuz beradi: bola kuzatadi, taqlid qiladi va natijani o‘z xatti-harakatlarida qo‘llaydi. Shu tariqa ota-ona modeli halollikni shaxsning tabiiy psixologik qobiliyatiga aylantiradi.

Motivatsion yondashuvlar ham oilaviy halollik vaksinasi samaradorligini oshiradi. Vijdon, ichki nazorat va empatiya hissi bolaning axloqiy qarorlar qabul qilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onaning harakatlari bolaning o‘zini nazorat qilish, rostgo‘ylikni qadrlash va mas’uliyatni his qilish kabi psixologik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ota-onaning doimiy maqtov va rag‘batlantirishi bolaning ichki motivatsiyasini mustahkamlaydi, natijada halollik uning shaxsiy qadriyati sifatida qabul qilinadi.

Shuningdek, oilada halollikni shakllantirish jarayoni emotsional komponent bilan chambarchas bog‘liq. Bola ota-onaning xatti-harakati va hissiy reaksiyalarini sezadi: masalan, yolg‘onni aniqlaganda ota-onaning noroziligi yoki halol ishni maqtashi bolaning emotsional axloqiy tajribasini boyitadi. Natijada, halollik faqat mantiqiy tushuncha emas, balki hissiy jihatdan ham mustahkam qabul qilinadigan qadriyatlarga aylanadi.

Oilaviy psixologik mexanizmlar, shuningdek, farzandning axloqiy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu immunitet shaxsni yolg‘on, firib va manipulyatsiyaga qarshi psixologik tayyorlaydi va halollikni shaxsning ichki tizimi sifatida integratsiyalaydi. Shu bois, ota-ona modeli va psixologik motivatsiyalar birgalikda oilada “halollik vaksinasi”ning samarali shakllanishini ta’minlaydi.

Etik nazariya doirasida halollik tushunchasi normativ va deontologik yondashuvlar orqali o‘rganiladi. Normativ etika shaxsning xulqini qadriyatlar va axloqiy me’yorlar asosida baholaydi, deontologik yondashuv esa harakatning o‘zini axloqiy jihatdan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deb ko‘radi[8]. Shu nuqtai nazardan, halollik - bu shaxsning harakatida rostgo‘ylikni saqlash, adolat va mas’uliyatni ta’minlashni anglatadi.

Immanuil Kantning deontologik etikasi halollikni vazifaviy axloqiy majburiyat sifatida ko‘radi. Kantga ko‘ra, yolg‘on gapirmaslik va odil bo‘lish shaxsning ichki axloqiy qonuni bo‘lib, uni tashqi mukofot yoki jazodan qat’iy nazar bajarish lozim. Shu bilan birga, utilitarizm yondashuvi halollikni amaliy oqibatlar kontekstida baholaydi: rostgo‘ylik ijtimoiy manfaatlarni oshiradigan natija tug‘dirsa, u axloqiy jihatdan ma’qullanadi. Ikkala yondashuv ham ota-onaning farzand tarbiyasida halollikni shakllantirishda foydali metodologik baza hisoblanadi.

Ota-ona va farzand o‘rtasidagi axloqiy javobgarlik amaliyotga tadbiq etishda muhim rol o‘ynaydi. Farzand ota-onaning axloqiy yetakchiligi orqali halollikni qadriyat sifatida o‘zlashtiradi[9]. Masalan, ota-onaning halol mehnat qilish, va’dasini bajarish va adolatli munosabatda bo‘lishi farzandning ichki

nazorat tizimini shakllantiradi va halollikni shaxsiy xulqining ajralmas qismiga aylantiradi.

Shuningdek, etik nazariya halollikni ijtimoiy va ma’naviy kontekst bilan bog‘laydi. Oila shaxsning birlamchi axloqiy muhitidir va ota-onaning axloqiy me’yorlari farzandning shaxsiy qadriyatlar tizimini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, halollik vaksinasi konsepsiyasi etik nazariyalar bilan uzviy bog‘lanadi va oilaviy amaliyotda axloqiy immunitetni shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Halollikni shakllantirish jarayoni faqat individual yoki oilaviy omillarga bog‘liq emas, balki sotsiokulturniy kontekstda ham muhim ahamiyatga ega. Milliy urf-odatlar, mahalla tizimi va oilaviy qadriyatlar shaxsning axloqiy xulqini belgilovchi asosiy ijtimoiy muhit sifatida qaraladi[10]. Masalan, O‘zbekistonda an’anaviy oilalarda hurmat, adolat va halollik qadriyatlari kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanadi, bu esa farzandning axloqiy immunitetini shakllantiradi.

Oila shuningdek, ijtimoiy kapitalning shakllanish manbai sifatida ham halollikni targ‘ib qiladi. Putnam ta’kidlaganidek, oilaviy ishonch va hamkorlik farzandning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi va shaxsni yolg‘on, firibgarlik va manfaatparastlikka qarshi immunlashtiradi. Shu bilan birga, milliy madaniyat va global halollik standartlari o‘rtasidagi farqlarni hisobga olish zarur. Globalizatsiya sharoitida, ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlar turli manbalardan shakllanadi, ammo oilaviy va mahalliy kontekst halollik vaksinasi samaradorligini belgilovchi asosiy omil bo‘lib qoladi[11].

Shunday qilib, sotsiokulturniy yondashuv halollikni nafaqat shaxsiy, balki jamiyat miqyosida tizimli tarzda rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Oila, mahalla va milliy madaniyat integratsiyasi shaxsning axloqiy immunitetini mustahkamlash va halollik qadriyatini avloddan-avlodga uzatishda asosiy mexanizm hisoblanadi.

Halollikni shakllantirish jarayoni tizimli yondashuv asosida ko‘rib chiqilganda, shaxs, oila, ta’lim muassasalari, davlat va jamoatchilik tizimlari o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi elementlar sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, halollik faqat shaxsiy fazilat emas, balki keng ijtimoiy ekotizimning

ajralmas qismidir. “Halollik ekotizimi” tushunchasi bu jarayonda barcha ijtimoiy institutlarning o‘zaro integratsiyasini ifodalaydi.

Oila bu tizimning markaziy elementi sifatida shaxsning birinchi axloqiy tajribasini beradi. Bola ota-onaning xulqini kuzatadi, oiladagi axloqiy qoidalar va qadriyatlarni ichki singdiradi. Oilada halollikni namoyon etuvchi oddiy kundalik amaliyotlar - ota-onaning rostgo‘yligi, moliyaviy shaffofligi, va va’dalarini bajarishi bolada axloqiy model sifatida qabul qilinadi. Shu tarzda, oila shaxsni axloqiy jihatdan “immunizatsiya” qiladi va bolani kelajakda ijtimoiy jihatdan barqaror va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Usmonova, N. R. Parent-Child Relationships in the Uzbek Family. // Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. – 2025. – Vol. 4, Issue 7. – P. 385–387. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.jmsi.135044
2. Bandura, A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, N.J.: Prentice-Hall, 1977. – 247 p.
3. Kohlberg, L. Essays on Moral Development. Vol. II: The Psychology of Moral Development: The Nature and Validity of Moral Stages. – San Francisco: Harper & Row, 1984. – 729 p.
4. Hoffman, M. L. Empathy and Moral Development: Implications for Caring and Justice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 342 p.
5. R.Putnam, Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. – N.Y., 2000.
6. J.Piaget, The Moral Judgment of the Child. – New York, 241-255, 1932.
7. M.Hoffman, Empathy and Moral Development. – Cambridge University Press, 49-55, 2000.
8. W.D.Ross, The Right and the Good. – Oxford University Press, 1930.
9. Grusec, J. E., Goodnow, J. J. Impact of Parental Discipline Methods on the Child's Internalization of Values: A Reconceptualization of Current Points of View. // Developmental Psychology. – 1994. – Vol. 30, No. 1. – P. 4–19. – DOI: 10.1037/0012-1649.30.1.4.

10. Hofstede, G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. 2nd ed. – Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 2001. – 616 p.

11. R.Inglehart, & W.E.Baker, Modernization, Cultural Change, and the Persistence of Traditional Values. – American Sociological Review, Vol. 65, No. 1. – P. 19–51. 2000.